



ARAB TILIDA MUSNADNING STRUKTURAVIY-SEMANTIK
XUSUSIYATLARI

Ahmad Hoshimiyning “Javohiru-l-balog‘a” asari asosida

G‘ofurjonov Muhammad Nabi Abdusalom o‘g‘li
Oriental universiteti magistranti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada arab tili balog‘at ilmining markaziy kategoriyalaridan biri — musnadning strukturaviy va semantik xususiyatlari Ahmad Hoshimiyning “Javohiru-l-balog‘a” asari misolida tahlil qilinadi. Musnadning grammatik tabiati, uning mufrad va jumla ko‘rinishlari, fe‘l va ism bilan ifodalanishidagi semantik farqlar hamda musnadning matnda ochiq keltirilishi (zikr) va tushirib qoldirilishi (hazf) bilan bog‘liq balog‘iy holatlar o‘rganiladi. Tadqiqot natijasida musnad sof grammatik birlik emas, balki so‘zlovchining maqsadiga muvofiq tanlanadigan uslubiy vosita ekani asoslanadi.

Kalit so‘zlar: balog‘at, ma‘oniy ilmi, musnad, isnod, mufrad, jumla, fe‘l, ism, zikr, hazf, tajaddud, subut, Ahmad Hoshimiy.

1. Kirish

Arab tili balog‘at ilmi (al-balog‘a) nutqning fashohati, ta’sirchanligi va nutqiy vaziyatga muvofiqligini o‘rganuvchi filologik soha bo‘lib, an’anaviy ravishda uch bo‘limga — ma‘oniy, bayon va badi’ ilmlariga — ajratiladi. Ma‘oniy ilmi gap tuzilishini so‘zlovchining maqsadi va maqom talabi nuqtai nazaridan tahlil qiladi. Aynan shu ilm doirasida gapning ikki asosiy ustuni — musnad va musnad ilayh — markaziy o‘rin tutadi.

Musnad — gapda nisbat beriluvchi hukm, xabar markazi bo‘lib, zamonaviy tilshunoslikdagi kesim (predikat) tushunchasiga yaqin turadi. Biroq balog‘at ilmida musnad sof grammatik o‘rin bilan chegaralanmaydi: uning shakli, holati va tartibi so‘zlovchining kommunikativ niyatiga bog‘liq holda o‘zgaradi. Ushbu maqolada Ahmad Hoshimiyning “Javohiru-l-balog‘a” asari asosida musnadning strukturaviy-semantik xususiyatlari — uning grammatik turlari hamda zikr va hazf holatlari — tahlil qilinadi.

2. Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Musnad va isnod masalasi arab tilshunosligida Sibavayhining “Al-Kitob” asaridan boshlab o‘rganilgan. Keyinchalik Abdulqohir Jurjoniy “Daloil ul-i’joz” asarida isnodni ma‘no hosil qiluvchi asosiy munosabat sifatida talqin qildi. Sakkokiyning “Miftoh ul-ulum” va Qazviniyning “Al-Iyzoh” asarlarida esa musnadning balog‘iy holatlari tizimlashtirildi. Ahmad Hoshimiy “Javohiru-l-balog‘a”da ushbu boy an’anani eng izchil va misollar bilan boyitilgan holda jamladi.

O‘zbek arabshunosligida balog‘at ilmiga oid muhim tadqiqotlar S. Rustamiy, M. Nosirova va boshqa olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Biroq musnadning strukturaviy-semantik xususiyatlarini aynan Hoshimiy metodologiyasi asosida yaxlit o‘rganishga bag‘ishlangan maxsus tadqiqotlar yetarli emas. Mazkur maqola shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.





3. Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda tavsifiy metod (Hoshimiy ta’riflarini izchil bayon qilish), qiyosiy-tahliliy metod (fe’l va ism musnadni, zikr va hazf holatlarini qiyoslash) hamda kontekstual tahlil (Qur’on oyatlari va she’riy misollarning ma’nosini maqom doirasida ochish) usullaridan foydalanildi. Asosiy manba sifatida Hoshimiyning “Javohiru-l-balog‘a” asari va undagi misollar tahlil qilindi.

4. Tahlil va natijalar

4.1. Musnadning grammatik turlari.

Hoshimiy musnadni ifrod (yakkalik) nuqtai nazaridan ikki turga ajratadi: mufrad (yakka) va jumla (gap shaklidagi). Mufrad musnad o‘z navbatida fe’l shaklida — «قَدِمَ سَعْدٌ» (“Sa’d keldi”) — yoki ot shaklida — «سَعْدٌ قَادِمٌ» (“Sa’d keluvchidir”) — kelishi mumkin. Jumla shaklidagi musnad esa uch holatda qo‘llanadi: sababiy bog‘lanishni ifodalaganda, hukmni musnad ilayhga xoslaganda hamda hukmni ta’kidlaganda.

4.2. Fe’l va ism musnadning semantik farqi.

Hoshimiy tahlilining eng nozik jihatlaridan biri — musnadning shakli bilan ma’nosi o‘rtasidagi bog‘liqlikdir. Fe’l bilan ifodalangan musnad tajaddud (yangilanish) va voqeaning muayyan vaqtga bog‘liqligini, ism bilan ifodalangan musnad esa subut (zamondan xoli, mutlaq doimiylik)ni anglatadi. Ushbu farq Niso surasining 142-oyatida bir oyat doirasida yaqqol namoyon bo‘ladi:

﴿يُخَادِعُونَ اللَّهَ وَهُوَ خَادِعُهُمْ﴾

“Ular Allohni aldamoqdalar, holbuki, U ularning aldovchisidir.” (Niso, 142)

Bu yerda fe’l shaklidagi «يُخَادِعُونَ» munofiqlarning takror-takror sodir etadigan, vaqtga bog‘liq aldovini, ism shaklidagi «خَادِعُهُمْ» esa Allohga nisbatan zamondan xoli, mutlaq sifatni ifodalaydi. Shu tariqa, musnadning shakli tanlovi to‘g‘ridan-to‘g‘ri semantik qiymatni belgilaydi — bu Hoshimiy yondashuvining tilshunoslik nuqtai nazaridan qimmatini ko‘rsatadi.

4.3. Musnadning zikri va hazfi.

Musnadning matnda ochiq keltirilishi (zikr) yoki tushirib qoldirilishi (hazf) ma’oniyligining asosiy tamoyiliga — “nutq muhtojlikka yarasha bo‘lishi kerak” qoidasiga — bo‘ysunadi. Zikr aniqlik, ta’kid yoki tinglovchining holatini hisobga olish maqsadida qo‘llanadi. Hazf esa ixchamlik, umumlashtirish va ta’sir kuchini oshirish vositasi bo‘lib, Abdulqohir Jurjoniy ta’biri bilan, u “sehriga o‘xshash” estetik-psixologik hodisadir.

Hazfning balog‘iy qimmati Yusuf surasining 18-oyatida ko‘rinadi:

﴿فَصَبْرٌ جَمِيلٌ﴾

“Endi chiroyli sabr (lozim).” (Yusuf, 18)

Oyatning asl tuzilishi «فَأَمْرِي صَبْرٌ جَمِيلٌ» bo‘lib, undagi musnad ilayh «أَمْرِي» (mening ishim) hazf qilingan. Bu hazf ma’noni muayyan shaxsdan uzib, uni umuminsoniy darajaga ko‘taradi va “sabr” tushunchasini nutqning markaziga chiqaradi. Agar tushirilgan unsur oshkor qilinsa, iboraning ta’sir kuchi sezilarli darajada pasayadi.

4.4. Strukturaviy tanlovning pragmatik mohiyati.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Yuqoridagi tahlildan ko‘rinadiki, musnadning grammatik shakli (mufrad/jumla, fe‘l/ism) va uning zikr yoki hazf qilinishi tasodifiy emas, balki muayyan kommunikativ maqsadga xizmat qiluvchi ongli tanlovdir. Shakliy o‘zgarish har doim ma‘noviy yoki uslubiy natija beradi: fe‘l yangilanishni, ism doimiylikni; zikr aniqlik va ta‘kidni, hazf esa ixchamlik va umumlashtirishni ifodalaydi.

5. Xulosa

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchidan, “Javohiru-l-balog‘a”da musnad sof grammatik birlik (kesim) sifatida emas, balki semantik va uslubiy mazmun kasb etuvchi dinamik kategoriya sifatida talqin qilinadi. Ikkinchidan, musnadning fe‘l yoki ism bilan ifodalanishi tajaddud va subut kabi qarama-qarshi semantik qiymatlarni yuzaga keltiradi; bu farq Niso surasi 142-oyatida bir oyat ichida namoyon bo‘ladi. Uchinchidan, musnadning zikri va hazfi “nutq muhtojlikka yarasha bo‘lsin” tamoyiliga bo‘ysunadi, hazf esa ma‘noni umumlashtiruvchi va ta‘sirni kuchaytiruvchi balog‘iy vositadir. Umuman olganda, musnadning strukturaviy-semantik xususiyatlari so‘zlovchining kommunikativ niyatiga muvofiq tanlanadigan yaxlit tizimni tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qur‘oni karim.
2. أحمد الهاشمي. جواهر البلاغة في المعاني والبيان والبدیع. – بيروت: دار إحياء التراث العربي، 1375هـ.
3. عبد القاهر الجرجاني. دلائل الإعجاز. – القاهرة: مكتبة الخانجي، 1984.
4. أبو يعقوب يوسف السكاكي. مفتاح العلوم. – بيروت: دار الكتب العلمية، 1987.
5. جلال الدين القزويني. الإيضاح في علوم البلاغة. – بيروت: دار الكتب العلمية، 1998.
6. عبد العزيز عتيق. علم المعاني. – بيروت: دار النهضة العربية، 1985.
7. Rustamiy S. O‘rta asrlar balog‘at ilmida tilshunoslikka oid qarashlar. – Toshkent: Zilol buloq, 2019.
8. Nosirova M.A. Tilshunoslik bilimlari tarixi (arab tilshunosligi). – Toshkent: O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, 2019.